

## **BOLALAR JAMOALARI FAOLIYATI VA ULAR UCHUN YOZILGAN ASARLAR.**

**Ikromiddinova Madinaxon.**

**Andijon davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti**

**Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi talabasi.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7549752>

**ANNOTATSIYA:** Maqolada bolalar musiqasi hamda o'qituvchilarning bolalar bilan ishlash psixologiyasi haqida qisqacha ma'lumot keltirilib o'tilgan. Bolalar uchun musiqa darsliklar keltirilib o'tilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** Musiqa, folklor, kompozitorlar, madaniyat, pedagogika, bolalar uchun yozilgan asarlar, kompozitor, tarbiyachi.

Jamoa so'zi lotincha kollektivus so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi. Jamoa ijtimoiy jamoaning bir qismi hisoblanib, kishidan ma'lum bir maqsad asosida intiladigan, harakat qiladigan va o'zi hamma kuch harakatini ijtimoiy faoliyat, mehnatga sarf qiladigan bo'lishini talab etadi. Jamoa tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o'rni va ro'lini to'g'ri baholay olish, inson fikrini hurmatlash, jamoani munosib a'zosi bo'lishga intilish har bir shaxs uchun muhimdir. Bolalar jamoasini shakllantirish uzoq vaqtni talab etadigan murakkab jarayondir.

Kichiktoylar uchun yoziladigan har qanday asarlar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kompozitor va bastakorlar qalbida o'y-fikrlar uyg'otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g'oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo'lishi zarur. Eng muhimi asarlari tushunarli, sodda va qiziqarli ifodalanishi kerak. Bolalar jamoalari uchun asarlar yoshlarni imon-e'tiqodli kishilar sifatida vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir.

Bolalar musiqasi — bolalarning tinglashi va ijro etishi uchun mo'ljallangan musiqa asarlari. Bolalar musiqasi namunalari sodda shakli, yorqin ifodasi, jonli badiiy mazmuni bilan ajralib turadi. Bolalar hayoti, xalq ertaklari, tabiat manzaralari, hayvonot dunyosi Bolalar musiqasida o'z ifodasini topadi. Bolalar ijrosiga mo'ljallangan asarlarda ularning ijro imkoniyatlari (bolalar ovozi, ko'lami, xorda kuylashga tayyorligi, ijro usuli murakkabligi va h. k.) nazarda tutiladi. Bolalar tinglashi uchun maxsus yaratilgan musiqa asarlari orasida talaygina sahna asarlari (opera, balet, musiqali spektakl), kinofilm va multfilm, teleko'rsatuv va radioeshittirishlarga yozilgan musiqalar ham mavjud. Bolalar va ayni ular uchun kattalar tomonidan ijro etiladigan xalq musiqasi ijodiyoti namunalari (qo'shiq, musiqiy tomosha va o'yinlar) Bolalar folkloriga kiradi.

I. S. Baxning "Anna Magdalena Baxning nota daftari", P. Chaykovskiyning "Bolalar albomi", R. Shumannning "Yoshlar albomi", K. SenSansning "Xayvonlar karnavali" orkestr fantaziyasi, S. Prokofyevning "Petya va bo'ri" simfonik ertagi, K. Orfnig "Bolalar uchun musiqa" 5 jildli to'plami (G. Ketman bilan hamkorlikda) Bolalar musiqasi ning yorqin namunalaridir.

O'zbekistonda Bolalar musiqasi 20-asrning 30- yil larida yuzaga kelgan. Ilyos Akbarov, H. Muhamedova, K. Abdullayevlar birinchi bolalar qo'shiqlari, V. Uspenskiy, B. Nadejdinlar bolalar uchun ilk fortepiano asarlari yaratgan. Lekin 1950—90- yillardagina Bolalar musiqasi tizim tarzida rivoj topdi. M. Burhonov, A. Muhamedov, F. Qodirov, N. Norxo'jayev, Ye. Shvars, A. Mansurov va boshqa ommabop qo'shiqlar, S. Varelas, B. Giyenko, D. Zokirov, G. Mushel, F. Nazarovlar turli janrlarda cholg'u asarlar, X Azimov, S. Abramova, P. Xoliqov, G'.Qodirov kabi kompozitorlar bolalar musiqa ta'limiga oid asarlar yozgan. Bolalar uchun opera ("Yoriltosh", S. Boboyev; "Alovuddinning sehrli chirog'i", S. Varelas; "Malikai ayyor", S. Jalil; "Ali Bobo va qirq qaroqchi", V. Milov; "Xayvonlar sulтони", A. Mansurov va boshqalar) va baletlar ("Oltin kalitcha", B. Zeydman; "Go'zal Vasilisa", A. Berlin), musiqali komediya ("Dono qiz va ahmoq podsho", D.Zokirov va boshqalar) yaratilgan. Kompozitorlardan T. Toshmatov, N. Norxo'jayev, M. Bafoyev, A. Ergashev, A. Nabiyev, A. Mansurov va boshqa yosh tomoshabinlar va qo'g'irchoq teatrlarida sahnalashtirilgan spektakllarga musiqalar yaratishgan.

Bolalar kompozitorlari asarlarni sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun kompozitorlar bolalar ruhiyatini puxta bilishi lozim.

Yuqorida keltirib o'tilgan bastakor va kompozitorlar bolalar uchun aynan sodda, qiziqarli va mazmunli asarlar yaratishgan. Bugungi kunda bolalar jamoalari faoliyati uchun ana shunday asarlar o'z hissalarini qo'shib kelmoqda.

Yurtimizda ko'plab bolalar jamoalari mavjud. Xozirgi davrda bolalar uchun nafaqat qo'shiqlar, zorlar yoki cholg'u kuylarigina mavjud bo'lib qolmasdan, balki bolalar operalari, musiqa ertaklari, shuningdek bolalar auditoriyasi uchun maxsus yaratilgan simfonik musiqalar, bolalar drammalari va kinofilmlariga yozilgan musiqalar ham yaratilgan.

O'zbekiston kompozitorlari ozod va obod vataninizning musiqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida faol ijod qilmoqdalar. Mustaqillikning o'tgan davrida kompozitorlar yakka ijrochi va ijro jamoalarining repertuarlarining yangi-yangi musiqiy asarlar bilan doimiy ravishda boyitib kelmoqdalar. Bolalar xor jamoalari, o'smir yoshlar va bolalar ijrosi uchun turli cholg'u asarlarini yaratmoqdalar. Bolalar jamoalari faoliyati mustaqilligimizda

yanada rivojlandi. Xususan Sh. Yormatov bolalar jamoalarini rivojlantirishda juda katta xissa qo'shgan. Jumkadan Bolalar xor san'atini faol targ'ib qilgan. «Bulbulcha» bolalar xorining badiiy rahbari va bosh drijyori bo'lgan. Bu jamoa juda ko'plab shaharlar hamda juda ko'plab davlatlar, mamlakatlarda faoliyatini targ'ib qilishgan. Xususan o'zbek milliy an'alariga suyangan xolda «alla» shu kabi qo'shiqlarni ijro etishgan.

Hozirda yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Miroziyoyev tashabbusi bilan juda ko'plab islohatlar bolalar uchun amalga oshirilmoqda, ularga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Musiqa o'quvchilar shaxsiyatini, umuman inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa darsi o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'liqdir. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham Davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning, ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqi ta'lim-tarbiyasi, pedagogikasi va uning mukammal uslubiyotlari ustoz - shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

#### REFERENCES:

1. Z.Nishanova, G. Alimova. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" Toshkent-2006.
2. Asqarova Dilorom Qurbonovna. "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" Toshkent-2020.
3. Ibraximjanova Gavhar, Urmanova Lola, Xadjayeva Mahfuza, Xalilov Fahriddin. "Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya. Toshkent-2017.